



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **SHARQ ALLOMALARINING “HALOLLIK” TUSHUNCHASIGA OID QARASHLARI**

**Nurdinov Javharbek Bahromjon o‘g‘li**

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, tyutor

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Sharqning buyuk mutafakkirlari – Imom G‘azzoliy, Al-Farobiy, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Ibn Sino va Farididdin Attor asarlarida halollik tushunchasining ijtimoiy-axloqiy va falsafiy talqini tahlil qilinadi. Ularga ko‘ra, halollik shunchaki shaxsiy fazilat emas, balki jamiyat barqarorligi, adolatli boshqaruv va sog‘lom ijtimoiy muhitning muhim tayanchi hisoblanadi. Maqolada allomalar halollikni shaxsiy axloqiy mezon, ijtimoiy burch, rahbarlik fazilati va jamiyatning ma’naviy immuniteti sifatida qanday talqin qilganliklari misollar asosida ochib beriladi. Bu qarashlar zamonaviy davlat xizmatchilarining kasbiy etikasi va “halollik vaksinasi” konsepsiyasi uchun mustahkam ma’naviy-falsafiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Halollik, axloqiy qadriyatlar, Sharq allomalari, davlat xizmatchilari, G‘azzoliy, Farobiy, Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Ibn Sino, Farididdin Attor, boshqaruv madaniyati, ijtimoiy barqarorlik, vijdon, adolat, sotsial ishonch, kasbiy etika, halollik vaksinasi.

## **ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ПОНЯТИЕ «ЧЕСТНОСТЬ»**

**Нурдинов Жавхарбек Бахромжон угли**

Международная исламская академия Узбекистана, тьютор

### **Аннотация**

В данной статье анализируются социально-нравственные и философские интерпретации понятия честности в трудах великих мыслителей Востока — Al-Ghazali, Abu Nasr al-Farabi, Alisher Navoi, Ahmad Yasawi, Bahauddin Naqshband, Ibn Sina и Fariduddin Attar. По их мнению, честность является не просто личным качеством, но и важнейшей основой социальной стабильности, справедливого управления и здоровой общественной среды. В статье на примерах раскрывается, как мыслители трактовали честность как личностный нравственный критерий, социальный долг, управленческое качество и духовный иммунитет общества. Эти идеи служат прочной духовно-философской основой для профессиональной этики современных государственных служащих и концепции «вакцины честности».

**Ключевые слова:** честность, нравственные ценности, восточные мыслители, государственные служащие, Газали, Фараби, Навои, Ахмад Ясави, Бахауддин Накшбанд, Ибн Сина, Фаридуддин Аттар, культура управления, социальная стабильность, совесть, справедливость, социальное доверие, профессиональная этика, «вакцина честности».

## **VIEWS OF EASTERN SCHOLARS ON THE CONCEPT OF “HONESTY”**

**Nurdinov Javharbek Bahromjon o‘g‘li**

International Islamic Academy of Uzbekistan, Tutor

### **Abstract**

This article analyzes the socio-ethical and philosophical interpretations of the concept of honesty in the works of great Eastern thinkers — Al-Ghazali, Abu Nasr al-Farabi, Alisher Navoi, Ahmad Yasawi, Bahauddin Naqshband, Ibn Sina, and Fariduddin Attar. According to their views, honesty is not merely a personal virtue but a fundamental pillar of social stability, just governance, and a healthy social environment. The article demonstrates, through examples, how these scholars interpreted honesty as a personal moral standard, a social responsibility, a leadership quality, and the spiritual immunity of society. These perspectives provide a solid philosophical foundation for the professional ethics of modern civil servants and the concept of the “honesty vaccine.”

**Keywords:** honesty, moral values, Eastern scholars, civil servants, Al-Ghazali, Al-Farabi, Navoi, Ahmad Yasawi, Bahauddin Naqshband, Ibn Sina, Fariduddin Attar, management culture, social stability, conscience, justice, social trust, professional ethics, honesty vaccine.

Sharq tafakkuri va ma’naviy merosi inson axloqiy kamolotini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, halollik tushunchasi Sharq allomalari asarlarida markaziy axloqiy qadriyatlardan biri

sifatida talqin qilinib, jamiyat taraqqiyoti va shaxsning komillikka erishishida asosiy mezon sifatida qaraladi. Halollik nafaqat moddiy sohada poklik va adolatni, balki insonning ichki dunyosi, niyati, soʻzi va amali oʻrtasidagi uygʻunlikni ham anglatadi.

Sharq allomalari — faylasuflar, mutafakkirlar va diniy ulamolar oʻz asarlarida halollikni insoniy fazilatlarining eng muhimlaridan biri sifatida yoritganlar. Ular halollikni adolat, vijdon, poklik, rostgoʻylik kabi tushunchalar bilan uzviy bogʻliq holda izohlab, uni jamiyat barqarorligi va ijtimoiy ishonchning asosi sifatida koʻrsatganlar. Xususan, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar halollikni inson kamoloti, maʼnaviy poklik va axloqiy yetuklikning muhim sharti sifatida talqin qilganlar.

Mazkur mavzuning dolzarbligi bugungi kunda yanada ortib bormoqda. Zamonaviy globallashuv sharoitida maʼnaviy qadriyatlarining saqlanishi, jamiyatda halollik va adolat tamoyillarining mustahkamlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois Sharq allomalarining halollik haqidagi qarashlarini oʻrganish nafaqat tarixiy va falsafiy ahamiyatga ega, balki bugungi ijtimoiy hayotda ham muhim amaliy qiymat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Sharq allomalarining “halollik” tushunchasiga oid qarashlarini tahlil qilish, uning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda bu gʻoyalarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida halollik tushunchasining falsafiy, axloqiy va ijtimoiy jihatlari kompleks yondashuv asosida oʻrganiladi. Bu esa milliy maʼnaviy merosni chuqur anglash va uni zamonaviy tarbiya tizimida samarali qoʻllashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Insoniyat tarixida halollik, rostgoʻylik, poklik kabi axloqiy qadriyatlar doimo jamiyat taraqqiyotining asosi boʻlib kelgan. Sharq tamaddunida bu tushunchalar chuqur falsafiy va maʼnaviy asoslarda izohlangan boʻlib, yirik mutafakkirlar tomonidan insoniy komillikning mezoni sifatida talqin qilingan. Sharq allomalari, jumladan, Imom Gʻazzoliy, Abu Nasr al-Farobiy, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Ibn Sino va boshqa olimlar halollikni shaxsiy fazilatdan tashqari, ijtimoiy barqarorlik va adolatli boshqaruvning asosi sifatida koʻrganlar.

Imom Gʻazzoliy (1058–1111) oʻzining “Ihyo ulum ad-din” (“Din ilmlarini jonlantirish”) asarida halollikni qalb pokligi va niyat sofliigi bilan bogʻlagan. Uning taʼkidlashicha, insonning halol boʻlishi faqatgina tashqi koʻrinish yoki harakatlar bilan emas, balki uning ichki dunyosi, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati va masʼuliyat hissi bilan belgilanadi. Gʻazzoliy amaldorlar uchun “halol rizq izlash”, “odamlar bilan adolatli muomala qilish” va “har bir ishda niyatni toʻgʻrilash” kabi mezonlarni asosiy axloqiy talab sifatida belgilaydi. U halollikni shaxsiy axloqiy fazilat emas, balki ijtimoiy burch va boshqaruv mezoni sifatida ham koʻrgan [1].

Gʻazzoliy oʻzining “Kimyo-i saodat” nomli boshqa mashhur asarida halollikni insoniy komillikka olib boruvchi vosita sifatida talqin qilib, uni toʻrtta asosiy bosqichda bayon qilgan: halol yoʻl bilan topilgan mol, halol niyat, halol mehnat va jamiyatga halol xizmat qilish. Uning fikricha, inson halollikka erishishda nafaqat shaxsiy intilish, balki ijtimoiy masʼuliyatni ham yelkasiga oladi.

Shuningdek, Gʻazzoliy halollik va boshqaruv sifati oʻrtasidagi bogʻliqlikka alohida eʼtibor qaratgan. U jamiyatdagi tartib va adolatni saqlash uchun amaldorlarning halolligini zarur shart deb bilgan. Aks holda, uning fikricha, jamiyatda adolat zaiflashadi, ishonch yoʻqoladi va axloqiy inqiroz yuzaga keladi. Ayniqsa, mansabdor shaxslar halollikni kundalik faoliyatining ajralmas qismi qilib olmasalar, bu holat xalq orasida norozilik va beqarorlikka olib keladi. U halollikni shaxsiy axloqiy fazilat emas, balki ijtimoiy burch va boshqaruv mezoni sifatida ham koʻradi.

Abu Nasr al-Farobiy (870–950) esa “Fozil odamlar shahri” nomli mashhur falsafiy risolasida jamiyat boshqaruvi, axloqiy yetuklik va halollik oʻrtasidagi bogʻliqlikka alohida urgʻu beradi. U halol insonlarni ijtimoiy yetakchi sifatida tasvirlaydi va fozil jamiyatni bunday odamlarsiz tasavvur qilmaydi. Uning fikricha, “fozil inson” oʻz nafsini ustidan gʻalaba qozongan, yolgʻon, riyo va zoʻravonlikdan yiroq, ijtimoiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qoʻyadigan kishidir [2].

Farobiy halollikni faqat individual axloqiy sifat sifatida emas, balki siyosiy boshqaruv tizimining asosiy elementi sifatida koʻradi. Unga koʻra, rahbarlar faqat bilimli va dono emas, balki halol va adolatli boʻlishi zarur. Bunday yetakchi jamiyatni tartib, barqarorlik va taraqqiyot sari yetaklay oladi. Farobiy fozil shahar modelida aynan halollik, rostgoʻylik va sadoqatga asoslangan ijtimoiy munosabatlar tizimini ideal shakl deb hisoblagan.

Farobiy halollikni faqat axloqiy tushuncha sifatida emas, balki jamiyatning funksional asoslaridan biri deb koʻrgan: agar jamiyatda yolgʻon, riyo va hiyla ustuvor boʻlsa, unda ijtimoiy tuzum buziladi va odamlar oʻrtasidagi ishonch soʻnadi. Shu sababli Farobiyga koʻra, halollik jamiyatda ijtimoiy

uyg'unlik va adolatli boshqaruvni ta'minlovchi asosiy qadriyatdir.

Sharq adabiy-falsafiy tafakkurining yuksak cho'qqilaridan biri bo'lgan Alisher Navoiy (1441–1501) ham o'z asarlarida halollik va sadoqatni muhim axloqiy fazilat sifatida madh etgan. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy amaldorlarning halolligini xalq ishonchi va davlat barqarorligining negizi sifatida talqin qilgan. U quyidagicha yozadi: “Kimki davlat ishida sadoqat va halollik bilan ish tutsalar, ul xalq orasida obro'li va duoliklardur.” Bu fikr bugungi zamonaviy davlat boshqaruvi uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ibratli mulohaza sifatida qabul qilinadi [3].

Navoiy halollikni insoniy barkamollik mezoni sifatida qaragan. U “Xamsa” turkumidagi asarlarida, xususan, “Saddi Iskandariy”, “Hayrat ul-abror” kabi dostonlarida adolatli, halol va vijdonli hukmdor obrazlarini yaratadi. Ularda halollik faqat bir insonning fazilati emas, balki butun jamiyatni barqarorlashtiruvchi vosita sifatida tasvirlanadi.

Navoiy o'zining nasriy asarlarida ham, masalan, “Nasoyim ul-muhabbat” va “Lison ut-tayr”da halollikni rostgo'ylik, poklik, sadoqat va vijdon bilan uyg'un holatda tasvirlaydi. Uning nazarida halollik — bu insoniylik mezoni bo'lib, har qanday siyosiy yoki ijtimoiy lavozimda bo'lgan shaxsda mavjud bo'lishi kerak. Halollik yo'q joyda adolat so'nadi, adolat so'ngan jamiyat esa parchalanishga yuz tutadi.

Navoiy halollikni badiiy obrazlar orqali targ'ib etar ekan, uni sof axloqiy ideal sifatida talqin qilgan. Bu ideal zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar uchun ham dolzarb bo'lib, davlat xizmatchilarining axloqiy profilini shakllantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan mustahkam manbaga aylangan.

Ahmad Yassaviy (1103–1166) o'zining “Hikmatlar” asarida halollikni insonning ichki tarbiyasi va ijtimoiy o'rni bilan uzviy bog'liq holda talqin qilgan. U halollikni nafaqat axloqiy majburiyat, balki ruhiy komillikka erishish vositasi sifatida tasvirlagan. Hikmatlarida insonni halol mehnat qilish, o'z nafsini tiyish, yolg'on va riyodan saqlanishga da'vat etadi. “Halol yegan taning ichra nur bo'lg'ay” degan iborasi orqali Yassaviy insonning iste'mol madaniyati, mehnat etikasi va ma'naviy holati o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rsatgan [4].

Yassaviyning tasavvufiy ta'limoti bo'yicha, inson o'z nafsini poklamasa, jamiyatda halollik barpo bo'lmaydi. U ijtimoiy hayotda, ayniqsa, mansabdor shaxslar va ulamolarning halollikda sobit turishini zarur deb bilgan. Uning nazarida halollik faqat shaxsiy najot emas, balki jamoaviy saodatga erishishning ham kalitidir.

Bahouddin Naqshband (1318–1389) esa Naqshbandiya tariqatining asoschisi sifatida “dil ba yoru, dast ba kor” (“Ko'ngil Xudoda, qo'l mehnatda”) shiorini ilgari surgan. Bu nafaqat diniy, balki ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan shiordir. Halol mehnat, o'z burchini vijdonan bajarish, har bir ishda halollikni saqlash — Naqshband ta'limotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bugungi davlat xizmatchilarining professional va axloqiy tamoyillariga mos keladi [5].

Naqshband halollikni insonning kundalik hayotidagi muomalalari orqali namoyon bo'ladigan amal sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, inson chin yurakdan halol mehnat qilar ekan, bu nafaqat rizq topish, balki jamiyat oldidagi burchni ado etish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash vositasidir. Uning fikricha, halollik tasavvufiy darajadagi komillik emas, balki har bir inson uchun zaruriy odob-axloq mezonidir.

Bahouddin Naqshband faoliyati va qarashlari asosan ichki poklik, niyat sofligi, halol muomala va mehnatga asoslangan boshqaruv etikasi ustida qurilgan. Bu jihatlar zamonaviy davlat xizmatida ham dolzarb bo'lib, halollikni faqat axloqiy emas, balki institutsional qadriyat sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Ibn Sino (980–1037) esa o'zining falsafiy asarlarida insoniy komillik, halollik va adolatni bir butun holda talqin qiladi. U amaldorlar va hakimlar uchun axloqiy fazilatlar haqida yozar ekan, shunday deydi: “Inson o'z nafsining qulidan erkin bo'lmog'i kerak, toki u boshqalarga yetakchi bo'la olsun.” Bu fikr halollikni ichki erkinlik va mas'uliyat bilan bog'laydi [6].

Ibn Sino fikricha, halollik — bu inson tafakkuri va amaliy harakatlaridagi uyg'unlikdir. U inson faqat bilimli emas, balki axloqiy jihatdan yetuk bo'lgandagina boshqalarni to'g'ri yo'lga boshlay oladi, deb hisoblaydi. Uning “Kitob ush-shifo” va “Donishnoma” asarlarida halollik, rostgo'ylik va adolat ruhiy salomatlik va jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qilinadi.

Ibn Sino halollikni ham individual fazilat, ham ijtimoiy mas'uliyat sifatida ko'rgan. Unga ko'ra, rahbar yoki olim halollikda sobit bo'lmasa, uning bilim va kuchi zararli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli Ibn Sino ta'limotida halollik — bu insonni barkamol qilish bilan birga, jamiyatga foydali shaxsga aylantiruvchi tamoyildir.

Farididdin Attor (1145–1221) o'zining mashhur asari “Mantiq ut-tayr”da halollikni insonning ichki poklanish yo'lida bosib o'tishi lozim bo'lgan asosiy bosqichlardan biri sifatida talqin qilgan. Asarda



qushlarning to'g'rilik va haqiqat sari qilgan sayohati ramziy ravishda ifodalanadi va bu yo'lda ularni halollik, sadoqat, sabr kabi sifatlar sinovdan o'tkazadi. Attorga ko'ra, halollik — bu insonning o'z fikriga, qaroriga va tanlovlariga sodiq qolishi, ikkiyuzlamachilik va soxtalikdan yiroqlikdir [7].

Attor halollikni faqatgina axloqiy norma sifatida emas, balki ruhiy yetuklikning zaruriy sharti sifatida ko'rgan. Uning qarashlarida halol bo'lish — bu ijtimoiy niqoblardan xalos bo'lish, ichki poklik va shaffoflikda yashash demakdir. U halollikni jamiyatdagi sun'iy ijtimoiy rollarga qarshi qo'yadi va insonni o'zligini anglashga undaydi. Halollik orqali inson yolg'on va riyodan xalos bo'lib, o'z mohiyatiga yaqinlashadi.

Uningcha, halol inson har qanday sharoitda ham ichki tamoyillariga sodiq qoladi. Bunday insonlar jamiyatda ishonch muhitini shakllantiradi, boshqalarga namuna bo'la oladi. Farididdin Attorning bu qarashlari bugungi kunda davlat xizmatchilarida halollik “vaksinasi”ni shakllantirishda kuchli ma'naviy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Sharq allomalari halollikni shunchaki individual axloqiy fazilat emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida ko'rganlar. Ularning qarashlari halollikni nafaqat shaxsiy poklik, balki adolatli boshqaruv, jamoaviy ishonch, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikning negizi sifatida talqin qilgan. Bugungi zamonaviy jamiyatda, ayniqsa, davlat xizmatchilari faoliyatida halollikka shunchaki odob-axloq doirasida emas, balki strategik qadriyat sifatida yondashish aynan ana shu tarixiy merosga tayanadi. Demak, “halollik vaksinasi” tushunchasi — bu o'zini va jamiyatni boshqarishdagi mas'uliyatli, ongli yondashuvning davomi bo'lib, u Sharq mutafakkirlarining asrlar avval aytgan haqiqatlariga zamonaviy ijtimoiy mazmun bag'ishlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abu Homid G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Dar al-Ma'rifa, 2001.
2. Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri / tarj. A. Mo'minov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
4. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar / tarj. H. Hasanov. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
5. Bahouddin Naqshband. Naqshbandiya tariqati asoslari. – Buxoro: Ma'naviyat, 2002.
6. Ibn Sino. Kitob ush-shifo / tarj. va tahr. A. Yoqubov. – Toshkent: Fan, 2002.
7. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr / tarj. S. Mirzayev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
8. Sodiqova Sh. Yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rni: risola. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
9. Sodiqova Sh. Boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2020.